



OLIV TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISH STRATEGIYASINING MOHIYATI VA MENEJMENT SOHASINI TAKOMILLASHTIRISH

Tursunaliyeva Kamola Mirabbos qizi

Farg'ona Davlat Universiteti

ORCID:0009-0002-6347-0096

tursunaliyevakamola2@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshqaruv jarayonlari samaradorligini oshirish, ta'lim sifati va raqobatbardoshlik darajasini ko'tarish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Ta'lim tizimining globallasuvi va raqamlashtirilishi fonida, ta'lim muassasalari oldida yangi strategik maqsadlar paydo bo'lmoqda, bu esa menejment jarayonlarini optimallashtirishni talab qiladi. Maqolada bu sohani keng qamrovli ravishda yanada isloh qilish haqida va bir qancha boshqarish tizimlarga tushunchalar ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimini boshqarish, strategiya, optimallashtirish, integratsiyalashuv, tamoyillar, innovatsion rivojlantirish, menejment, sog'lom raqobat, boshqaruv tizimlar, terminologik apparat.

СУЩНОСТЬ СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМ УЧЕБНЫМ ЗАВЕДЕНИЕМ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СФЕРЫ МЕНЕДЖМЕНТА

Турсуналиева Камола Мираббасовна

Ферганский государственный университет

Аннотация. В данной статье рассмотрены такие вопросы, как повышение эффективности процессов управления, повышение качества и конкурентоспособности образования, внедрение инновационных подходов. На фоне глобализации и цифровизации системы образования перед образовательными учреждениями возникают новые стратегические задачи, требующие оптимизации процессов управления. В статье также дается представление о более широкой реформе этой отрасли и некоторых систем управления.

Ключевые слова: управление системой образования, стратегия, оптимизация, интеграция, принципы, инновационное развитие, менеджмент, здоровая конкуренция, системы управления, терминологический аппарат.

THE ESSENCE OF THE MANAGEMENT STRATEGY OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND IMPROVEMENT OF THE FIELD OF MANAGEMENT

Tursunaliyeva Kamola Mirabbos kizi
Fergana State University

Abstract. *This article considers issues such as improving the efficiency of management processes, raising the quality and competitiveness of education, and introducing innovative approaches. Against the background of globalization and digitization of the educational system, new strategic goals are emerging in front of educational institutions, which require optimization of management processes. The article also provides insights into the broader reform of this industry and several management systems.*

Keywords: *education system management, strategy, optimization, integration, principles, innovative development, management, healthy competition, management systems, terminological apparatus.*

Kirish.

Mamalakatimizda Oliy ta'lim tizimini boshqarish va bugungi kunda tobora rivojlanib borayotgan menejment sohasida ta'lim oluvchi talabalarda ongli o'z munosabatini shakllantirishga qaratilgan qator muhim qarorlar tasdiqlanib kelmoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari faqat bilim beruvchi tashkilotlar emas, balki jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotida muhim rol o'ynovchi strategik subyektlar sifatida qaralmoqda. Samarali boshqaruv tizimlari, resurslarni oqilona taqsimlash va ta'lim jarayonini optimallashtirish bo'yicha strategik yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kun masalalaridan biri hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim sohasini rivojlantirish, Uchinchi Renessansni yaratish va bu jarayonda sohani tubdan isloh qilish bo'yicha yangi tizim shakllandi. Ta'lim sohasida jahon ta'lim standartlariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash uchun oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini oshirish va innovatsion rivojlantirishga qaratilgan orqali bir qancha ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, ta'lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqish va ularni xalqaro reytinglarga kirishiga har tomonlama ko'maklashish maqsadida ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan so'nggi uch yilda oliy ta'lim muassasalarining Milliy reytingi e'lon qilinib borilmoqda. Oliy ta'lim standartlarimiz ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirilmoqda. Har yili OTMning reytingi o'rganilib chiqib, OAV shaffoflik va oshkoralik bilan xalqqa taqdim etilmoqda. Bu oliygohlar o'rtasida raqobat muhitining shakllanishiga sabab bo'ldi.

Adabiyotlar sharhi.

Oliy ta'lim muassasalarida menejmentning zamonaviy tizimini shakllantirish, unda asosiy qonunchilik va milliy hujjatlar asosida O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda O'zbekistonning ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillarini belgilashi va ta'limni modernizatsiya qilish, boshqaruvni takomillashtirish va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash bu hujjatda markaziy o'rin tutadi. Boshqaruv strategiyasini rejalashtirishda davlat siyosatining muhim ko'rsatmalari hisoblanadi. Bundan tahqari qonunda universitetlarning avtonomiyasi va mustaqilligini oshirishga urg'u berilgan. Qonunda hujjatlari ta'lim tizimida sifatni oshirishga qaratilgan muhim o'zgarishlarni ko'zda tutadi.

Sharifxo'jaev, Abdullaev (2001) "Menejment" asarida menejmentning nazariy asoslari, boshqaruv jarayonining asosiy funksiyalari va usullari yoritilgan. Strategik boshqaruvga e'tibor

qaratish, boshqaruvda inson omilining ahamiyatini kuchaytirish, ta'lim boshqaruvida klassik menejment yondashuvlarini qo'llash masalalari keng yoritilgan

Qosimov (2002) "Menejment" asarida menejmentning asosiy tamoyillari, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni va strategik rejalashtirish usullari bilan tanishtiradi. Tashkilotlarda samarali resurslarni boshqarish yondashuvlari va xalqaro tajriba va xorijiy adabiyotlar asosida tahlil natijalarini korsatib otgan.

Kameron, Kuinn (2001) "Oliy ta'lim muassasalarida tashkilot madaniyatini rivojlantirish boshqaruv samaradorligini oshiradi. Diagnostika vositalarini qo'llash orqali boshqaruvni optimallashtirish mumkin"-degan mulohazasini tahlil qilib o'tgan.

Gayazova, Faxrutdinova (2012) ta'lim sifatini oshirishda AQSh ta'lim tizimi tajribasini o'rganishga bag'ishlangan. "Ta'lim sifatini boshqarish uchun aniq monitoring tizimlarini joriy qilish. Ta'lim muassasalarining xususiy sektor bilan hamkorligi rivojlanishi."

Кананыкина (2009) "Ta'lim tizimida dezentralizatsiya boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion yondashuvlarning keng tatbiq etilishi ta'lim sifatini oshiradi."

Абакарова (2011) "Raqamlashtirish boshqaruvni tezkor, aniq va shaffof qiladi. Ma'lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish boshqaruv sifatini oshiradi."

Сулейманова (2015) "Ta'lim boshqaruv tizimlarida moslashuvchan yondashuvlar talab etiladi."

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy huquqiy asoslar boshqaruv strategiyalarini rivojlantirishning normativ asosini tashkil qiladi

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada oliy ta'lim boshqarish sifatini baholash ko'rsatkichlari keyingi bir necha yillardan beri ta'lim tizimining eksponensial o'zgarishi jarayonlari bilan belgilanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tahlilning asosiy jihatlari oliy ta'lim muassasalarini boshqarish strategiyalarining mohiyati va oliy ta'lim muassasalarini boshqarish strategiyasi asosan ta'lim sifatini oshirish, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va xalqaro standartlarga mos ta'lim dasturlarini ishlab chiqish maqsadlarni ko'zlaydi. Bunda boshqaruv strategiyalari rejalashtirishdan tortib, amalga oshirish va natijalarni baholashgacha bo'lgan jarayonlarni tizimli tarzda o'z ichiga olishi zarur. Bu O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun strategik rivojlanish yo'nalishini belgilaydi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali menejment uchun zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash, masalan, transformatsion liderlik va innovatsion menejment, muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy va xalqaro tajriba taqqoslashining natijalari O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari davlatning markazlashgan boshqaruvi ostida bo'lib, strategik qarorlar yuqoridan pastga yo'naltirilganligini ko'rsatmoqda. Xalqaro universitetlarda (masalan, AQSh, Yevropa Ittifoqi) boshqaruvning dezentralizatsiyalashgan modeli keng qo'llanadi. Ta'lim tizimlarida innovatsion texnologiyalar va xalqaro reytinglarga mos keladigan dasturlar joriy etilgan. Resurslarni jalb qilish va boshqarishda xususiy sektor bilan yaqin hamkorlik qilinadi.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari xalqaro tajribani o'rganib, dezentralizatsiya va xususiy sektor bilan hamkorlikni kuchaytirishi bugungi kunning asosiy maqsadi bo'lib kelmoqda.

Ma'lumot va tahlillarda raqamli texnologiyalarni boshqaruv jarayonlariga joriy qilishni ijobiy taraflari keng yoritib berilmoqda. Bu jarayon boshqaruv bo'limining ma'lumotlarini tahlil qilishni osonlashtirish va talabalar va o'qituvchilar bilan muloqotni samarali tashkil etish jarayonlarini osonlashtirib beradi va albatta, boshqaruvning shaffofligini oshiradi. O'quv

jarayonlarini boshqarish uchun masofaviy ta'lim platformalari. Oliy ta'lim muassasalarini boshqarish strategiyasi samaradorligini oshirish O'zbekiston ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Menejment sohasini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar va xalqaro tajribadan foydalanish lozim. Shu bilan birga, davlat tomonidan ta'lim muassasalariga erkinlik berish va malakali menejnlarni tayyorlash zarurdir. Tadqiqot natijalari amaliyotda qo'llanilsa, ta'lim tizimi samaradorligi va xalqaro reytinglarda O'zbekistonning o'rnini sezilarli darajada yaxshilanadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq ta'limning maqsadi o'quvchilarni har tomonlama nazariy bilim, amaliy ko'nikma, umumiy hamda kasbiy bilim, malaka va tajribalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim chuqur nazariy bilim va amaliy tajribalarni o'zlashtirish orqali qobiliyatlarni rivojlantirish va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan tizimli faoliyat sifatida belgilanadi. Shu bilan birga ushbu qonunda ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari hisoblanishi qayd etilgan. Ta'kidlash joizki, ta'lim sohasidagi boshqaruvning mahalliy va xorijiy nazariyasi va metodologiyasida ushbu sohaning asosiy jihatlariga nisbatan yagona terminologik apparat shakllanmagan, bu esa oliy ta'lim muassasasini boshqarish tizimining ishlash muammolarini to'liq o'rganishni qiyinlashtiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilarning fikrlari 80 dan ortiq turli xil yondashuvlarga ega bo'lgan "boshqaruv", "menejment" toifasiga murojaat qilishda bir-biridan farq qiladi.

Menejment (boshqaruv) – bu shunday keng fan, amaliyot va san'at sohasiki, ko'pincha o'qituvchilar o'zlarini individual, ko'pincha taniqli tushunchalar va elementlarni qamrab olish bilan cheklashadi. Haqiqat shundaki, menejment fani juda yosh, uning paydo bo'lganiga 100 yoshdan sal ko'proq vaqt bo'ldi. Shunday bo'lsa-da ko'plab nazariy pozitsiyalar to'liq shakllanmagan va turli olimlar ularni juda ziddiyatli talqin qilishadi.

O'zbek tilida "menejment" atamasi yanada keng tarqaldi. To'liq o'zaro tushunish uchun N.D. Nikandrov ushbu atamalarning sinonimlarini ko'rib chiqishni taklif qiladi: menejment = boshqaruv = rahbarlik.

"Menejment" tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud. Ulardan faqat eng keng tarqalganini keltiramiz. Menejment (boshqaruv) – iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish orqali bozor sharoitida faoliyat yurituvchi tashkilot tomonidan muayyan boshqaruv maqsadlariga erishishga qaratilgan kishilarning kasbiy faoliyatining mustaqil turi. N.N. Bulinskiydan, Menejment-rahbarning boshqa odamlarning mehnati, aql-zakovati va xulq-atvori motivlaridan foydalangan holda o'z maqsadlariga erishish qobiliyatini tushunadi, boshqacha qilib aytganda, bu odamlar va ijtimoiy jarayonlarni boshqaradi. Menejment – ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etish; ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va foydani ko'paytirish maqsadida ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan boshqaruv tamoyillari, usullari, vositalari va shakllari majmui. Barcha ta'riflar bir-biriga o'xshash bo'lib, ularni "menejment – bu tamoyillar, shakllar, usullar, metodlar va boshqaruv vositalari majmuidir" deyish mumkin. "Menejment" tushunchasi insonni boshqarishga yordam beradigan bilimlar yordamida maqsadlarga erishish qobiliyatini qamrab oladi; odamlarni boshqarish bilan bog'liq turli funksiyalar va faoliyatni o'z ichiga oladi, shuningdek, boshqaradigan odamlar toifasini o'z ichiga oladi. Odatda, "menejment" ta'rifi faqat boshqarishga nisbatan qo'llanilgan. So'nggi paytlarda ular ta'lim tashkilotlariga keng tatbiq etilmoqda. "Menejment" va "boshqaruv" tushunchalari ma'no jihatidan yaqin bo'lsa-da, ammo "boshqaruv" atamasi ancha keng, chunki u inson faoliyatining turli turlariga, sohalarga va boshqaruv organlariga nisbatan qo'llaniladi. Menejment jarayonlar va ishtirokchilarni aniq maqsadlarga erishishga yo'naltirish uchun mo'ljallangan muvofiqlashtirilgan harakatlar to'plamini anglatadi. U materiya harakatining turli shakllariga, ya'ni jonsiz tabiat, yovvoyi tabiat va jamiyatga qarab har xil turlarga bo'linadi. Boshqaruv turlari quyidagilardan iborat:

Texnik tizimlarni boshqarish: Bu ishlab chiqarish va texnik jarayonlarni, shuningdek, mexanizmlar va mashina tizimlarini nazorat qilish.

Biologik tizimlarni boshqarish: Bu biologik tizimlarni boshqarishga qaratilgan va kibernetika fani orqali o'rganiladi.

Ijtimoiy tizimlarni boshqarish: Ushbu turdagi menejment ijtimoiy fanlar bilan bog'liq va ijtimoiy tizimlarni boshqarishga tegishli. U ijtimoiy tuzilmalar va jarayonlarni boshqarish va tartibga solishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimini boshqarishni tashkil etish, metodologiya, kadrlar, kadrlar tayyorlash, rejalashtirish, moliya va boshqalar kabi bir qator tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ushbu chora-tadbirlar ta'lim muassasalarining barqaror faoliyat yuritishi, o'sishi va rivojlanishini ta'minlash, ularning barqarorligini ta'minlash va samarali taraqqiyotga ko'maklashish maqsadida amalga oshirilmogda. U doimiy ravishda qaror qabul qilish va amalga oshirish jarayonlarining yaxlit majmuini o'z ichiga oladi. Ta'lim muassasalarini boshqarish – bu o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar va yordamchi xodimlarning ta'lim va rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun uyg'un muvofiqligini ta'minlaydigan ixtisoslashtirilgan korxonalar. Bunga boshqaruv jarayonlarini birgalikda tashkil etuvchi rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish kabi faoliyatlar orqali erishiladi.

Ta'lim muassasalari sharoitida boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

– subyekt va obyekt o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xosligi: boshqarish obyekti va subyekti bir vaqtning o'zida;

– OTM nisbati normalangan va normalanmagan ishchi soat;

– OTM mehnat xususiyati, rag'batlantirish;

– oliy ta'lim muassasasining ichki va tashqi muhitini dinamikasi;

Shunday qilib, "menejment" tushunchasining ishchi ta'rifi sifatida biz "ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etish"ni qabul qilamiz; ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va foydani ko'paytirish maqsadida ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan boshqaruv tamoyillari, usullari, vositalari va shakllari to'plami. Menejment – bu "rahbarlarni yollashga asoslangan boshqaruvning kasbiy faoliyati bo'lib, u maxsus ta'lim va boshqaruv tajribasini o'z ichiga oladi. Ko'pincha menejerlar korxonalar egalari bo'lmaydi".

Boshqaruv – bu menejer individual qarorlarni tayyorlash va amalga oshirishni ta'minlaydigan harakatlar majmui. U neyropsixik harakatlar shaklida amalga oshiriladigan aqliy mehnat toifasiga kiradi va uchta shaklda mavjud: evristik, ma'muriy va operatsion. Bunday ish tashabbuskorlikni (va shu bilan birga itoat etish qobiliyatini), javobgarlikni oshirishni talab qiladi. Sharifxo'jayev va Abdullayev (2001) kabi mamlakatimizning taniqli olimlari, "management" – ingliz tilining Oksford lug'atida aniqlanishi mumkin bo'lgan ingliz atamasi va u resurslarni boshqarish bo'yicha maxsus ko'nikmalar bilan bir qatorda boshqaruv kuchi va san'atiga ega bo'lish tushunchasini o'z ichiga oladi, deya ta'riflashadi. Umuman olganda, menejment rentabellik va uning o'sishiga erishish uchun resurslarni, shaxslarni va faoliyatni samarali nazorat qilish jarayonini o'z ichiga oladi. Ushbu nuqtayi nazar shuni ta'kidlaydiki, menejment – bu qarorlarni nazorat qilish va amalga oshirish bilan birga ajoyib badiiy va mahoratli qarorlar qabul qilishni talab qiladigan qasddan tanlovdir.

Taniqli olimlar R.X.Djurayev va S.Turg'unov esa: "Menejment – inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida boshqaruvni tashkil etish, rahbarlik qilish (rejalashtirish, tartibga solish-muvofiqlashtirish, nazorat qilish) ma'nolarini anglatadi. Menejment – bu ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun faoliyatni, ya'ni insonlar yoki ularning guruhlarini faoliyatini muvofiqlashtirish hamda boshqarish usullari, shakllari va vositalari majmuidir. Tahlil qilib aytganda, menejment umumiy holda u yoki bu faoliyat turini tashkil etishni va unga rahbarlik qilishni, ya'ni turli xil sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning xatti-harakatlarini, munosabatlarini muvofiqlashtirish, ularning imkoniyatlari va qobiliyatlaridan to'g'ri foydalanishni tashkil etish, nazorat qilish va boshqarishni bildiradi", deb ta'kidlaydilar.

Olim G'.M. Qosimov menejmentni iqtisodiy nuqtayi nazardan tahlil qiladi. "Menejment – bu boshqarish orqali ishlarni amalga oshirish, ishbilarmonlar qanday ish yuritishini o'rgatish, yangi boshqarish tafakkurini shakllantirishdir. Menejment deganda, firmalarning maqsadiga erishishlarini tashkil etish, rejalashtirish, nazorat qilish, tashkilot ichidagi o'zaro ta'sir etishni muvofiqlashtirish, firma salohiyatidan foydalanish orqali jarayonlar, munosabatlar, harakatlarni amalga oshirish kabilar anglanadi. Shu o'rinda menejmentning ta'limga nisbatan ham qo'llanishiga e'tibor qaratamiz. Ta'lim menejmenti – bu metodlar, vositalar va tamoyillar majmuasi yordamida ta'lim maqsadlariga erishishga qaratilgan subyekt munosabatlariga asoslangan boshqaruvdir.

Menejment va ta'lim menejmenti funksiyalari umuman o'xshashdir: u yerda rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, motivatsiya va muvofiqlashtirish funksiyalari mavjud. Ammo menejment faoliyati mexanizmi umumiy va funksional xususiyatlarga ega, masalan: innovatsion menejment, xodimlar menejmenti, ta'minot menejmenti, ishlab chiqarish menejmenti, marketing menejmenti, sifat menejmenti, moliyaviy menejment, xalqaro menejment, atrof-muhit menejmenti. Shuni e'tirof etish kerakki, oliy ta'lim muassasalari faoliyati tasodifiy hodisa emas, balki bunday muassasalar rahbariyati tomonidan qulay tuzilgan va tartibga solinadigan jarayondir. Binobarin, "Oliy ta'lim muassasasini boshqarish" tushunchasiga aniqlik kiritish va uning asosiy tarkibiy qismi – "menejment"ga chuqur kirib borish zarur.

Jarayonlar, hodisalar, obyektlar, tashkilotlarni boshqarish inson faoliyatining eng qadimgi sohalaridan biridir. Boshqaruv jarayonining ma'lum tomonlarini (bu holda odamlarning yetakchiligi va rahbarlarning shaxsiyati) tasvirlashga urinishlar qadimgi yunon mutafakkirlari – Platon, Aristotel, Suqrot va boshqalarning asarlarida ham kuzatilgan. Ensiklopedik talqinlardan biriga ko'ra, boshqaruv turli xil tabiatdagi uyushgan tizimlarning funksiyasi sifatida tushuniladi, bu ularning o'ziga xos tuzilishini saqlashni ta'minlash, faoliyat rejimini qo'llab-quvvatlash, ularning dasturlari va maqsadlarini amalga oshirish imkonini beradi. V.A. Slastenin boshqaruvni yechimlarni ishlab chiqish, boshqariladigan obyektning ma'lum bir maqsad bilan tashkil etish, boshqarish, ta'sir o'tkazish, shuningdek, ishonchli ma'lumotlar asosida ushbu obyektning holatini tahlil qilish va monitoring qilish faoliyati sifatida belgilaydi. Boshqa tadqiqotchilar boshqaruvni boshqariladigan obyektga ta'sir ko'rsatishning uzluksiz, maqsadli jarayoni sifatida talqin qilishadi.

Xulosa va takliflar.

Menejment sohasi va sohalarni boshqarish hozirgi kun muammosiga aylanib borishi bu soha oliy ta'limda bir qancha o'zgarishlar yaratdi. Menejment sohasini takomillashtirish uchun zamonaviy boshqaruv tamoyillarini tatbiq etish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, hamda muassasalar orasida tajriba almashishni kuchaytirish talab etiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonining talabalar ehtiyojlariga moslashtirilishi va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga e'tibor qaratilishi muhim. Shu yo'l bilan oliy ta'limda raqobatbardoshlikni oshirish va jahon miqyosidagi innovatsion muassasalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyati paydo bo'ladi. Boshqaruv strategiyalar oliy ta'lim muassasalarining milliy va xalqaro miqyosda pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Абакаров О.Г. *Повышение эффективности управления ВУЗом на основе информационных систем: диссертация ... кандидата экономических наук : 08.00.05 / Оксана Гасановна Абакарова. - Махачкала, 2011. - 136 с.*

Гаязова Э.Б., Фахрутдинова Э.З. *Обеспечение качества образования за рубежом (на примере системы образования США) // Вестник Казанского технологического университета. 2012. Т. 15. № 4. С. 199-202.*

Камерон К., Куинн Р. Диагностика и изменение организационной культуры: пер. с англ./ под ред. И.В. Андреевой. - СПб.: Питер, 2001. - 320 с. Кананыкина Е.С. Система высшего и дальнейшего образования в нормативных документах Великобритании // Право и образование. 2009. № 1. С. 59-70.

Қосимов Ғ.М. Менежмент. – Т., Ўзбекистон, 2002 йил.

О'zbekiston Respublikasi Qonuni. Ta'lim to'g'risida. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son.

Сулейманова А. Р. Проектирование образовательных маршрутов аспирантов на основе анализа подготовки научно-педагогических кадров в России и за рубежом: диссертация ... канд. пед. наук : 13.00.08 / Сулейманова Алсу Расиховна. - Казань, 2015. - 263 с.

Ўлмасов А., Тўхлиев Н. Бозор иқтисодиёти. Қисқача луғат-маълумотнома. Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1991. — 144 б.

Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. (2001) Менежмент. – Т., Ўқитувчи.